

VOYAGA YETMAGANLARGA JINOYIY JAVOBGARLIK QO'LLASH ASOSLARI

Ug'lay Paraxatova

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat Universiteti Yuridika fakultiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada voyaga yetmagan shaxslar va ularning huquqbuzarliklari, voyaga yetmagan shaxslar va ularning jinoyiy huquqbuzarlik ishlarida jinoyi javobgarlik qo'llanilishining huquqiy asoslari haqida sóz yuritiladi. Jinoyiy javobgarlik va uning voyaga yetmaganlarga qo'llanilishi holatlari keng yoritiladi.

Kalit so'zlari: Voyaga yetmagan, shaxs, jinoyat, huquqbuzarlik, jinoyiy javobgarlik, huquq, ata-ona, vakil, sud, jinoyat kodeksi

Huquq sohasida huquqbuzarli turlaridan biri va eng og'ri bu jinoyiy huquqbuzarlik hisoblanadi. Shuning uchun ham unga qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazolar ham qat'iydir. Jinoyatga jazo tayinlashda jinoyat sodir etgan shaxs holati teran o'rganiladi. Bugungi kunda voyaga yetmaganlar orasida ham jinoyat sodir etilishi kóp uchramoqda, ularga jazo tayinlashning huquqiy asoslari bor. Bu haqida aytishdan oldin voyaga yetmagan shaxs kim ekanligin birinshi kerak:

Voyaga yetmagan — (lot . impubes, pupillus; ing, minor) — O'zR huquqida 18 yoshga to'lmagan shaxs. Ushbu tushuncha huquqning turli sohalarida 14 dan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanadi[1] Voyaga yetmaganlarning jinoyati haqida aytishdan avval esa jinoyat ózi nimaligini túsiniq yetish kerak:

Jinoyat — jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik). Muayyan qilmishni jinoyat deb hisoblash masalasi har bir davlatda o'zining ijtimoiy tuzumi, aholining turmush tarzi, milliy xususiyatlari, urf-odatlarini, an'analariga muvofiq xalqaro huquq me'yorlari e'tiborga olingan holda hal etiladi.[2]

Jinoyat protsessual kodeksining 51-moddasiga muvofiq, surishtiruv, dastlabki tergov harakatlari va sud muhokamasi davrida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilingan jinoyat ishlari bo'yicha advokatning ishtirok etishi shart.

Mazkur qoida JPKning 52-moddasi talabiga ko'ra voyaga yetmagan shaxs himoyachidan voz kechganda ham tatbiq etiladi. Ushbu protsessual qonun talablariga rioya qilmaslik JPK 49722-moddasiga asosan, hukmning bekor qilinishiga asos bo'ladigan jinoyat protsessual qonunning jiddiy buzilishi deb qaralishi kerak. Himoyachi ishtirok etishi shart bo'lgan hollarda uning ishtirokisiz aniqlangan har qanday dalil yuridik kuchga ega emasdir[3]

Jinoyat-protsessual kodeksining 551 va 562-moddalariga muvofiq sud voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilingan jinoyat ishlari ko'riladigan vaqt va joy haqida ularning ota-onasini, ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarni, vasiylik yoki homiylik organi vakillarini, voyaga yetmaganlar o'qigan yoki ishlagan korxona, muassasa, tashkilotni, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyani, zarur bo'lsa boshqa tashkilotlarni ham xabardor qiladi.

Sud bu tashkilotlarning vakillarini, sudlanuvchining vasiy yoki homiysini, voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha shug'ullanuvchi komissiyaning vakillarini guvoh sifatida so'roq qilish uchun sud majlisiga chaqirishga haqlidir. Voyaga yetmagan sudlanuvchining qonuniy vakili masalasi hal etilayotganda shuni nazarda tutish kerakki, JPKning 60-moddasining 2-qismida keltirilgan qonuniy vakil bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslarning ro'yxati qat'iy berilgan.[4]

Asosiy shartlar (asoslar):

Voyaga yetmaganlarga jinoyiy jazo qo'llash quyidagi hollarda mumkin: Jinoyat sodir etgan paytda shaxs 14 yoshga to'lgan bo'lsa (ba'zi og'ir jinoyatlar uchun), Shaxs 16 yoshga to'lgan bo'lsa, aksar jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilishi mumkin, Jinoyat shaxs tomonidan aybdorlik asosida sodir etilgan bo'lsa, Shaxs aqli raso va jazo muqarrarligini tushunishga qodir bo'lsa.

Sud voyaga yetmaganlarga jazo tayinlashda jazo tayinlashning umumiy asoslariga amal qiladi, voyaga yetmaganning rivojlanganlik darajasi, turmush sharoiti va tarbiyasini, sog'lig'ini, sodir etgan jinoyatining sabablarini, katta yoshdagilarning va boshqa holatlarning uning shaxsiga ta'sirini hisobga oladi. O'n to'rt yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan vaqtda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyatlar majmui tariqasida jazo tayinlanganda ozodlikdan mahrum qilishning eng ko'p muddati o'n yilgacha, agar sodir etgan jinoyatlarining bittasi o'ta og'ir jinoyat bo'lsa, o'n ikki yilgacha tayinlanadi.

O'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan vaqtda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyatlar majmui tariqasida ozodlikdan mahrum qilish jazosi — o'n ikki yilgacha muddatga, agar sodir etgan jinoyatlarining bittasi o'ta og'ir jinoyat bo'lsa, o'n besh yilgacha muddatga tayinlanishi mumkin. Jinoyat sodir etish paytida o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan bir necha hukm yuzasidan tayinlanadigan ozodlikdan mahrum qilish jazosining muddati o'n besh yildan oshmasligi kerak.

Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlanganda sud ushbu Kodeksning 72-moddasida nazarda tutilgan asos va shartlar mavjud bo'lsa, shartli jazo belgilashi mumkin.[5]

Jinoyat sodir etilishida voyaga yetmaganlarning javobgarlikka tortilishi yuqoridagi asoslarda atalgan oshiriladi.

Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatning ortasha sabablarini o'rganish va ularga qarshi kurashish ahamiyatli vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Yuridik ensiklopediyasi

2.O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

3.VOYAGA YETMAGANLARNING JINOYATLARI HAQIDAGI ISHLAR BO'YICHA SUD AMALIYOTI TO'G'RISIDA O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining Qarori 04.05.2022

4.VOYAGA YETMAGANLARNING JINOYATLARI HAQIDAGI ISHLAR BO'YICHA SUD
AMALIYOTI TO'G'RISIDA O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining Qarori
04.05.2022

5.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JINOYAT KODEKSI 86-moddasi